



112. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning yuzi

Yondosh mavzu:
qurilish.




Formula, yuz, perimetr.




1. Yuzning ta'rifini eslang. Qaysi rasmning yuzi katta?



2. Qaysi shakllarning yuzini hisoblay olasiz?




Kvadrat
yuzining formulasi



$$S = a \cdot a$$

To'g'ri to'rtburchak
yuzining formulasi





$$S = a \cdot b$$

112. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning yuzi



3. Bo'yalgan maydonning yuzini toping.




To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi mos to'g'ri to'rtburchak yuzining yarmiga teng.


To'g'ri burchakli uchburchakning yuzini topish formulasi:



$$S = a \cdot b : 2$$



4. Daftaringizga to'g'ri burchakli uchburchak chizing. Uning noma'lum tomoni uzunligini o'lchang. Uning perimetri va yuzini toping.



5. Xonadon mehmonxona, yotoqxona, koridor, yuvinish xonasi, oshxona va balkondan iborat. Quyidagi jadvaldan foydalanib, butun xonadonning yuzini toping.

Mehmonxona	24 m ² , yotoqxona yuzidan 6 m ² katta
Yotoqxona	
Oshxona	mehmonxona yuzining yarmiga teng
Koridor	oshxona yuzining uchdan biriga teng
Yuvinish xonasi	7 m ²
Balkon	koridor yuzidan 2 marta katta



6. Binoni yoritish uchun har 10 metrda chiroqlar o'rnatiladi. Uzunligi 60m, eni esa undan 100dm kichik bo'lgan bino bo'ylab nechta fonar o'rnatish kerak?



7. Kompleks masalalarni yeching. Har bir band uchun ifoda tuzing va ularni hisoblang.


- a) Qum ko'pincha beton tayyorlash uchun ishlatiladi. Buning uchun 10 qism sement, 28 qism qum va 48 qism shag'al aralashtiriladi. Beton hosil qilish uchun jami necha qism xomashyo olish kerak?
- b) 280kg qumdan qancha beton tayyorlanadi?
- d) Shuncha miqdorda beton tayyorlash uchun necha kilogramm sement olish kerak?
- e) Shuncha miqdorda beton tayyorlash uchun necha kilogramm shag'al kerak bo'ladi?



Qum



Sement



Shag'al



8. Ikki qop sementning massasi uch qop qumning massasiga teng. To'rt qop qumning massasi uch qop gipsning massasiga teng. Qanday qop eng og'ir va qanday qop eng yengil?



9. Hisoblang.

$$(7\text{t } 2\text{q } 34\text{kg} + 8\text{t } 63\text{kg} - 5\text{t } 372\text{kg}) : 5$$

$$(76\text{m } 3\text{dm } 8\text{cm} - 4\text{m } 26\text{cm}) : 3$$



10. Yer maydoni to'g'ri burchakli uchburchak shakliga ega. Uning eng qisqa tomoni uzunligi 60m, o'rtacha tomoni uzunligi esa 80m. Yer maydonining yuzini toping.